



O'ZBEKISTONDA INSON RESURLARINI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI VA ISTIQBOLLARI

Avazov Abdulla Turg'unovich
Termiz Davlat Universiteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda barcha sohaga yangilik sifatida kirib borayotgan yangi texnologiya – sun'iy intellektning O'zbekiston raqamli iqtisodiyotidagi o'rni, qator qonun hujjatlarida belgilangan normalari va qolaversa mamlakatimizning inson resurslarini boshqarish sohasiga kirib kelishi, sohada foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari hamda uning mehnat bozoridagi xavf-xatarlari haqida atroflicha so'z yuritiladi.

Kirish so'zlar: Sun'iy intellekt, HR, avtomatlashtirish, shaffoflik, texnologiya, hukumat, davlat boshqaruvi, raqamli iqtisodiyot, sanoat, rekrutment, islohotlar, AI, bozor iqtisodiyoti, resyume, chatbotlar, qidiruv tizimlari

THE ROLE AND PROSPECTS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN HUMAN RESOURCE MANAGEMENT IN UZBEKISTAN

Avazov Abdulla Turgunovich
3rd year student of Termiz State University

Abstract: In this article, the role of artificial intelligence in the digital economy of Uzbekistan, the role of artificial intelligence in the field of human resources management of our country, the advantages and disadvantages of its use in the field, and its impact on the labor market will be discussed in this article. risks are discussed in detail.

Key words: Artificial Intelligence, HR, Automation, Transparency, Technology, Government, Public Administration, Digital Economy, Industry, Recruitment, Reforms, AI, Market Economy, Resume, Chatbots, Search Engines

KIRISH

Bugungi zamonaviy davlat va jamiyatlarda raqamli texnologiyalar sohasi aholining turmush darajasini yaxshilash va iqtisodiyotda yangi reformalarni amalga oshirish uchun hukumat sektorining eng asosiy bo'g'ini sifatida shakllanmoqda. Globallashtirilgan dunyoda rivojlanishning eng asosiy faktorlaridan biri bu – ilmiy texnologik tomondan taraqqiy etganlikdir. Shu bois, hozirgi kunda nafaqat Yevropa mamlakatlarida balki O'zbekiston hukumati rahbariyati ham bu sohaga alohida e'tibor qaratmoqda. O'zbekistonda so'nggi yillarda iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonini jadallashtirish maqsadida raqamli texnologiyalar orqali iqtisodiyot, sanoat va jamiyatni chuqur o'zgartirishga qaratilgan qator me'yoriy normativ qonun-hujjatlari qabul qilindi. Xususan, "Raqamli O'zbekiston – 2030", shuningdek, "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" va "2022-2026-yilda O'zbekistonni



rivojlantirishning yangi strategiyasi” kabi islohotlarda ushbu masalalar alohida o‘z ifodasini topgan. Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlanishi hukumatning barcha sektorlarida nau-xau kabi texnologiyalarning paydo bo‘lishiga zamin yaratmoqda. Ayniqsa, bugungi axbarot makonida, ijtimoiy va iqtisodiy hayotimizga yangilik bo‘lgan texnologik omil - sun’iy intellekt jadallik bilan iqtisodiyot va sanoatning barcha tarmoqlariga kirib keldi va kundalik hayotimizda undan foydalanish ko‘paymoqda qolaversa, O‘zbekiston hukumati tomonidan qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini ham mamlakatimiz hududida keng yoyilishga sababchi bo‘lmoqda. Shu munosabat bilan, 2020-yilda Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2021-2022 yillarda O‘zbekiston Respublikasida sun’iy intellektni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni loyihasi muhokamaga qo‘yilgan bo‘lsa, 2021-yil 17-fevralda ushbu farmon qabul qilindi. Farmonga ko‘ra, aholi o‘rtasida, xususan, yoshlarga sun’iy intellekt sohasida bilim va ko‘nikmalar egallashlari uchun davlat tilida muntazam yangilanib turuvchi tizimlashtirilgan onlayn-ma’lumotlar bazasini yaratish ko‘zda tutilgan. Unda,

- sun’iy intellektning asosiy tushunchalari;
- sun’iy intellektning qo‘llanilish sohalari;
- sun’iy intellekt bo‘yicha yangi qiziqarli yangiliklar;
- davlat tilidagi qisqa bepul onlayn o‘quv mashg‘ulotlarini olib borish;
- sun’iy intellekt strategiyasini yoritish;
- o‘zaro innovatsion g‘oyalar almashinish onlayn platformasini shakllantirish;
- sun’iy intellektda ilm-fan va biznes vakillarining organik hamkorlik platformasini yaratish kabi bir qator vazifalar kiritilgan.

Mamlakatimizda ham ushbu sohadagi oxirgi islohotlar natijasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar hamda Raqamli texnologiyalar vazirliklari huzurida “Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti” ni tashkil etilib,

- iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish,

- sun’iy intellekt texnologiyalari asosida boshqaruv va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish bo‘yicha innovatsion mahsulotlarni hamda ularning modellari, algoritmlari va dasturiy ta’minotini ishlab chiqish,

- sun’iy intellekt sohasida fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni olib borish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirishning ilmiy ekotizimini shakllantirish,

- sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha yetakchi xorijiy innovatsion va ilmiy muassasalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va qo‘shma loyihalarni amalga oshirish kabi vazifalar ilmiy-tadqiqot institutining ustuvor vazifalari sifatida belgilangan.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Dunyo tajribasidan shu narsalar ma’lumki, so‘ngi vaqtlarda sun’iy intellekt iqtisodiyot va sanoatning barcha sohalari bilan integratsiyalashyotgani korxonalar hamda tashkilotlarning ishlash uslubini o‘zgarishiga olib kelmoqda va shu qatorda inson resurslarini boshqarish sohasi ham bundan mustasno emas. Suniy intellekt bu – insonning



mantiqiy va ijodiy funksiyalarni bajarishga qodir bo'lgan zamonaviy texnologiya bo'lib u barcha mavjud ma'lumotlarni umumiyashtirgan holda kerakli vazifa yoki topshiriqlarni bajarishga qarata dasturlangan elektron sun'iy tizim. So'ngi vaqtlarda, ushbu atama o'rganish va muammolarni hal qilish kabi inson zakovati talab etiladigan har qanday texnologiyaga nisbatan ham qo'llanishi kuzatilyapti. Sun'iy intellektning ideal xususiyati shundaki uning muayyan bir maqsadga erishish uchun eng yaxshi imkoniyatga ega bo'lgan harakatlarni baholay olish va amalga oshirish qobiliyatidir. Sun'iy intellekt bugungi texnologiya asrida jahon miqyosi darajasidagi eng muhim muammolarni eng qulay va tezkor usulda ijobiy yechimlar bilan hal qilyapti. Uning tarmoq sohalari nihoyatda keng bo'lib, qishloq xo'jaligi, meditsina va ta'limdan tortib harbiy sanoat, madaniyat, hamda energetika sohalarigacha zamonaviy darajada xizmat ko'rsata olishini alohida e'tirof etish lozim. Shu sababli ham u o'sib borayotgan muhandislik va kompyuter imkoniyatlari hisobiga kelajakda global miqyosda katta ta'sir ko'rsatish qudratiga ega bo'lib bormoqda. Olimlarning izlanishlariga ko'ra, keyingi 15-20 yil ichida AI texnologiyalari jamiyat hayotiga boshqa har qanday erishilishi mumkin bo'lgan yutuqlardan ko'ra ko'proq ta'sir ko'rsatadi va global inqilob darajasidagi o'zgarishlarni amalga oshiradi. Kelajakda uning ikki xil ta'sir segmentlari jamiyatda xarakterlanadi: birinchidan, odamlar sun'iy intellekt tufayli cheksiz qo'shimcha imtiyozlardan foydalanishlari mumkin bo'ladi. Ikkinchidan esa AI texnologiyalarining kompaniyalar va bandlikka jiddiy ta'siri bo'ladi. Shu munosabat bilan bir-biri bilan o'zaro bog'langan kompaniyalar va katta ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qiladigan guruhlar paydo bo'ladi, bu esa ular o'rtasida global raqobatning kuchayishiga olib keladi.


Shu qatorda, uning ta'sir doirasi ish qidirayotgan shaxslarni ishga joylashtirish va ish beruvchilar uchun kadrlar tanlash bilan bog'liq xizmatlarini shartnoma asosida ko'rsatish bo'yicha yuridik shaxslarning tadbirkorlik faoliyati bo'lmish.– rekruting va inson resurslarini boshqarish sohasida ham sezilarli darajada ko'rina boshlaydi. Sun'iy intellekt inson resurslarini boshqarish sohasida yangi kadrlarni tanlashning noodatiy usullarini yaratish, tizimning soddalashuviga erishish va eng asosiysi sohada inson omilini kamayishiga sabab bo'lmoqda. Guardian nashri bergan ma'lumotlarga ko'ra, sun'iy aql bilan sinxron ishlaydigan rekruting kompaniyalari so'ngi bir yil ichida butun jahonda umumiy hisobda 5-8 million nafar kishini ish bilan ta'minlagan ekan. Xalqaro standartlarni, rekruting faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishning chet el tajribasini inobatga olgan holda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan ham mamlakatimizda mazkur qonun loyihasi ishlab chiqilgan. Bu esa o'z navbatida O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabr sanasidagi Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasida ta'kidlaganidek, “Korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali vositalaridan biri – kadrlarni tanlash va ishga qabul qilishning ochiq tizimini yo'lga qo'yishdan iborat. Ushbu tizim asosida kadrlarni tanlashda eski usullardan voz kechib, ularning intellektual salohiyatini, ma'naviy fazilatlarini baholaydigan ochiq va oshkora tanlov tizimi joriy etildi.”¹. Shu ma'noda kadrlarni tanlash va ishga qabul qilish, boshqarish va bilim salohiyatidan samarali foydalanish jarayonida dunyoning eng TOP kompaniyalarida qo'llanilib kelayotgan hay-tek (hi-tech) texnologiyalarni tadqiq etib,



ulardan milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirishda foydalanish hozirgi kunda aktual masala bo'lib qolmoqda. Sun'iy intellekt rivojlanishda davom etar ekan, uning HR sohasidagi o'ri va roli vaqt o'tgan sari kengayib boraveradi, bu esa sun'iy aql va inson omiliga asoslangan strategiyalarni kelajakda bir vaqtda yonma-yon ishlashiga zamin yaratadi.

Bugungi kunda tashkilotlar uchun bo'sh ish o'rinlari haqida ma'lumotlarni shunchaki e'lonlar doskasiga joylashtirib, bu orqali malakali va raqobatbardosh nomzodlarning kelishini kutishni o'zi yetarli bo'lmay qoldi. Dinamik bozor iqtisodiyoti sharoitida eng malakali nomzodlarni jalb qilish va tanlashning hozirgi kunda zamonaviy hamda rivojlangan vositalari mavjud. Dunyoning bir qator davlatlari hozirgi raqobatli mehnat bozorida nomzodlarni tanlashda sun'iy intellektdan faol foydalanmoqda, xususan, IBM, Hilton, Amazon, Siemens va hakazolar bunga yorqin misol bo'la oladi. Ular bu kabi texnologiyalarni foydalangan holda rekrutment sohasida quyidagilarni soddalashtirishga erishdi:

- Yangi nomzodlarni qidirish va jalb qilish;
- Resyumelarni ko'rib chiqish;
- Intervyu belgilash va uni o'tkazish kabi qator vaqt talab qiladigan vazifalarni.



1-rasm: Inson resurslarini boshqarishda sun'iy intellektning asosiy vazifalari

Eightfold.ai tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma 250 dan ziyod HR menejerlari yangi nomzodlarni ishga qabul qilishda sun'iy intellektga murojaat qilishlarini ta'kidlagan va bu qabul davomida ish samaradorligini 60% gacha oshishiga olib kelgan. Kelgusi yillarda ham bu kabi texnologiyalardan foydalanish tobora ortib boraveradi, xususan "IDC's Future of Work" bergan ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilda dunyo bo'ylab 2000 dan ziyod kompaniya va korporatsiyalarning 60% HR bo'limlari sun'iy intellektdan foydalangan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilga borib 80% ni tashkil qilishi prognoz qilinmoqda. Sun'iy intellektdan foydalanish ko'p qirraligi bois, HR menejerlar nafaqat ulardan nomzodlarni ishga qabul qilishda balki ularning ish samaradorligini tekshirish va shu ma'lumotlarga asoslangan holda KPI ko'rsatkichlari past bo'lgan xodimlarga hayfsanlar berish yoki ishdan bo'shatishga ham sabab bo'lishi mumkin.



HR sohasida bugungi kunda eng ko'p qo'llanilib kelayotgan sun'iy intellektlaridan bular "JuiceBox AI yoki PeopleGPT", "Attract AI", "Effy AI", "Olivia" va "Leena Ai" kabi dasturlar soha xodimlarining ish unumdorligini oshishiga turtki bo'lmoqda. Shunga o'xshash tizimlarda ishchi-xodim izlovchi rekruterlar o'zlariga kerakli bo'lgan nomzodlarning sifat belgilarini kiritib qidiruv tugmachasini bosishi kifoya.

Hozirda xodimlar tomonidan bildirilgan har qanday taklif va shikoyatlarni aniqlaydigan bir qator AIga asoslangan xodimlar bilan yaqindan ishlovchi turli texnologik vositalar mavjud. Masalan, kompaniya va tashkilotlar yangi nomzodlarni ishga qabul qilishda onlayn so'rovnomalar orqali savol javob qiladigan chatbotlardan foydalanmoqda. HR jamoalari, shuningdek, har bir bo'lim bo'yicha malakasini oshirish uchun o'quv treningga ehtiyoji bor xodimlarni aniqlaydigan sun'iy intellektlardan ham foydalanib kerakli vaqtda xodimlarni bilim va malakasini oshirishga yordam beruvchi texnologiyalardan ham foydalanmoqdalar.

Yangi nomzodlarni ishga qabul qilishda sun'iy intellekt texnologiyasidan foydalanishning afzalliklari ko'p bo'lishiga qaramay, ba'zida uning ham o'ziga yarasha kamchiliklari mavjud. Intervyu jarayonining so'ngida ish beruvchi va nomzod o'rtasida bo'ladigan insoniy hatti-harakatlarning yo'qligi, misol uchun qo'l berib ko'rishish va jilmayib qo'yish kabi jismoniy harakatlar ham klassik rekrutmentning ajralmas qismi hisoblanadi. Ba'zi tadqiqotlar natijalariga ko'ra, 62% yangi ishga qabul qilingan nomzodlarning fikricha sun'iy intellekt texnologiyasi kelajak rekrutment sohasining ajralmas qismi bo'ladi lekin baribir nomzodlarni tanlashning so'nggi bosqichida inson omilining ahamiyati yuqoriligicha qolaveradi. Hozirgi rekrutment sohasida eng ko'p sun'iy intellekt texnologiyasi bilan nomzodlarni izlash (63%), ijtimoiy tarmoqlar orqali izlash (56%) ni tashkil qilmoqda.

HR menejerlar shuni aniqlashdiki, sun'iy intellekt texnologiyasi aniq va kuchli vosita bo'lishiga qaramay, ularni yanada to'g'ri va samaraliroq ishlashi uchun yuqori malakali HR menejerlar har doim kerak bo'lib qolaveradi. Bundan tashqari, sun'iy intellektga asoslangan HR kelajagi faqat odamlar va mashinalarning integratsiyasi orqali muvaffaqiyatli bo'ladi. Bu, ayniqsa, inson resurslarida "inson" degan omilni saqlab qolgan holda, mashinalar tomonidan boshqariladigan har qanday muammolar va kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun juda muhim bo'ladi. Misol uchun, agar kompaniya faqat ma'lum bir irq yoki demografik hudud vakili bo'lgan ma'lumotlar to'plamida dasturlangan AI tizimidan foydalansa, qidiruv natijalari hech qachon kompaniyalar kutgan malakali va yuqori intellektli xodimlar natijalarni bermaydi. Biroq, agar mana shunday masalalarni diqqat bilan kuzatib boradigan kadrlar bo'yicha mutaxassislardan iborat yaxshi jamoa mavjud bo'lsa, tashkilotlar AI tomonidan yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan barcha xavf-xatarlarni oldini olishga erishishi mumkin.

Xulosa

Xulosa shuki, O'zbekistonda inson resurslarini boshqarish sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanish uchun yetarli darajada infratuzilma va imkoniyatlarga ega. So'nggi vaqtlarda, hukumat tomonidan internet va aloqa tizimlaridan foydalanishda ulkan



eshiklar ochilishi bunga yana bir isbot. Elektron hukumat tizimini yanada yaxshilash orqali inson resurslari sohasida byurokratiya va mahalliychilikni oldini olishga erishish mumkin. Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotning innovatsion mintaqaviy markaziga aylanishi uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Texnologik korxonalarni qo'llab-quvvatlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va chet el kapitalini kirishini ta'minlash orqali O'zbekiston tez o'zgarib borayotgan global raqamli dunyoda o'z mavqeini yanada mustahkamlashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi // Xalq so'zi, 2020-yil 30-dekabr, №276(7778).
2. Q.Abdurahmonov, S.G'oyyibnazarov. 2021. "Rekrutment" o'quv qo'llanma.
3. Oracle Corporation. 2019. "AI in Human resources: The time is now"
4. <https://www.lex.uz>
5. <https://www.retorio.com/blog/what-ai-in-human-resource-management>
6. <https://www.gartner.com/en/human-resources/topics/artificial-intelligence-in-hr>